IQLIM O'ZGARISHI, UNING OSIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSIGA TA'SIRI

Xakimova Dilnoza Uktamovna
Navoiy davlat universiteti Axborot-resurs markazi,
Axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko'rsatish bo'limi ikkinchi toifali kutubxonachi. xakimovadilnozauktamovna@gmail.com

Anotatsiya: *So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi tufayli O‘zbekistonning tabiiy ekotizimlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Qurg‘oqchilik va issiqlikning ortishi natijasida ayrim o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolish xavfi ostida qolmoqda, migratsiya yo‘nalishlari o‘zgarib, biologik xilma-xillik kamaymoqda. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishining o‘simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta’siri tahlil qilinib, ekotizim barqarorligini ta’minlash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqlim o‘zgarishi, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, biologik xilma-xillik, moslashuv, O‘zbekiston.*

Annotation: *In recent years, significant changes have been observed in the natural ecosystems of Uzbekistan due to climate change. As a result of increasing drought and heat, some plant and animal species are at risk of extinction, migration routes are changing, and biodiversity is declining. This article analyzes the negative impact of climate change on flora and fauna and outlines ways to ensure ecosystem stability.*

Keywords: *climate change, plants, fauna, biodiversity, adaptation, Uzbekistan.*

Аннотация: *В последние годы в природных экосистемах Узбекистана наблюдаются значительные изменения вследствие изменения климата. В результате увеличения засухи и повышения температуры некоторые виды растений и животных находятся под угрозой исчезновения, изменяются маршруты миграции, снижается биологическое разнообразие. В данной статье проанализировано негативное влияние изменения климата на растительный и животный мир, а также приведены пути обеспечения устойчивости экосистем.*

Ключевые слова: *изменение климата, растения, животный мир, биологическое разнообразие, адаптация, Узбекистан.*

Kirish

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi tufayli tabiatda katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Haroratning oshishi, qurg‘oqchilik, kuchli yomg‘irlar va bo‘ronlar o‘simliklar va hayvonot dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston hududida ham ayrim o‘simlik turlari qurib qolmoqda, hayvonlar esa yashash joyini o‘zgartirmoqda yoki soni kamayib bormoqda. Bu holat ekologik muvozanatni buzib, inson hayotiga ham xavf tug‘dirmoqda. Shuning uchun iqlim o‘zgarishining oqibatlarini o‘rganish va oldini olish bugungi kunda juda muhimdir. Shu bois, bugungi kunda iqlim o‘zgarishining o‘simlik va hayvonot dunyosiga ta’sirini o‘rganish, ushbu muammoning ekologik oqibatlarini ilmiy asoslash, tabiiy

ekotizimlarni saqlab qolish, ularni moslashtirish va himoya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada aynan shu masalalar keng tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston misolida mavjud vaziyat yoritilib, barqaror rivojlanish yo‘llari izohlanadi.

Adabiyotlar sharxi

Iqlim o‘zgarishi masalasi bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Budyko M.I. (1987) o‘zining “Antropogen o‘zgarishlar iqlimi” asarida iqlimning global isishi, uning asosiy sabablarini ilmiy asoslab bergan. Muallif atmosferaga chiqayotgan issiqxona gazlari miqdorining oshishi natijasida Yerning umumiy harorati ko‘tarilishini tushuntiradi. Shuningdek, Yasamanov N.A. (1985) esa Yerning qadimgi iqlimlari haqida yozar ekan, tarixiy davrlardagi iqlim o‘zgarishlarining tabiiy omillarini tahlil qilib, bugungi antropogen o‘zgarishlar bilan qiyoslagan. Kurbonov A.B. va Shoxo‘jayeva Z.S. (2019) o‘z maqolalarida qishloq xo‘jaligi uchun suv resurslaridan oqilona foydalanishning ahamiyatini ochib bergan. Ular iqlim o‘zgarishi sharoitida suv ta’minotini tejash va yangi texnologiyalarni joriy etish o‘simliklarning moslashuvchanligini oshirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Shoxo‘jayeva Z.S. va Norqobilov M. (2020) tomonidan qishloq xo‘jaligi ekotizimlarida suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Umuman, ushbu adabiyotlar iqlim o‘zgarishining biologik xilma-xillikka ta’siri, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suv muammolari va ekotizimlarni himoya qilish masalalarini qamrab olib, ushbu maqolada yoritilgan ilmiy tahlillarning asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda iqlim o‘zgarishining o‘simlik va hayvonot dunyosiga ta’sirini o‘rganishda ilmiy tahlil, kuzatish va taqqoslash usullari qo‘llanildi. Avvalo, O‘zbekistonning turli hududlarida so‘nggi yillarda yuz bergan iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq meteorologik ma’lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, biologik xilma-xillik bo‘yicha mavjud ilmiy maqolalar, davlat hisobotlari, xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari tahlil qilindi. Hayvonlar migratsiyasi va o‘simliklarning moslashuvi haqidagi amaliy kuzatuv natijalari mavjud adabiyotlar bilan solishtirildi. Tadqiqot davomida taqdim etilgan barcha ma’lumotlar umumlashtirilib, iqlim o‘zgarishining ekologik barqarorlikka ta’siri yuzasidan xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda global miqyosdagi iqlim o‘zgarishlari O‘zbekiston hududida ham o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsatmoqda, jumladan, yoz mavsumida o‘rtacha haroratning oshishi, qish mavsumining iliqlashuvi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi yoki notekis taqsimlanishi natijasida qurg‘oqchilik kuchaymoqda, bu esa birinchi navbatda qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, chunki ayrim ekinlar yetarli namlik bo‘lmagani uchun o‘sishdan to‘xtamoqda yoki hosildorligi keskin kamaymoqda, yaylov o‘simliklari tarkibi o‘zgarib, yem bazasi zaiflashmoqda, natijada chorvachilik rivojlanishiga ham to‘sqinlik qilmoqda, o‘simliklar orasida ayniqsa qurg‘oqchilikka chidamsiz turlar kamaymoqda, ba’zilari butunlay yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda, ayrim hududlarda

esa cho‘l o‘simliklari va sho‘ralar ko‘payib, tuproqning sho‘rlanish jarayoni tezlashmoqda, bu esa yer unumdorligini pasaytirib, o‘simliklarning tabiiy tarkibini o‘zgartirmoqda, hayvonot dunyosida esa iqlim o‘zgarishlari migratsiya jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda, masalan, suv qushlari migratsiya yo‘nalishlarini o‘zgartirib, ayrim hududlarda ko‘payish va yashash joylarini tark etmoqda, sudralib yuruvchilar va hasharotlarning ko‘payish davrlari o‘zgarib, ayrim turlarning soni kamaymoqda, bu esa oziq-ovqat zanjirida uzilishlar keltirib chiqarmoqda, o‘rmonzorlarning qisqarishi, yaylovlarning degradatsiyasi, suv manbalarining kamayishi biologik xilma-xillikka tahdid solmoqda, natijada tabiiy ekotizimlar barqarorligi izdan chiqmoqda, iqlim o‘zgarishi tufayli kuchaygan issiq to‘lqinlar, qurg‘oqchilik va kuchli yomg‘irlar yer usti suv resurslarini kamaytirib, qishloq xo‘jaligi, energetika, ichimlik suvi ta’minotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shu sababli ushbu vaziyatga qarshi kurashishda iqlimga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish, masalan, qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni joriy etish, suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash, o‘rmonzorlarni ko‘paytirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni rekultivatsiya qilish, tabiiy ekotizimlarni saqlash, yovvoyi hayvonlar uchun qo‘riqlanadigan hududlarni kengaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, yashil energiya manbalaridan foydalanish va atmosfera ifloslanishini kamaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ushbu chora-tadbirlar nafaqat o‘simlik va hayvonot dunyosini, balki insoniyat hayoti, iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ham ta’minlashning asosiy omillaridan biridir.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston hududida iqlim o‘zgarishi natijasida o‘simliklar tarkibi o‘zgarib, ayrim yaylov o‘simliklari va ekinlar kamayib bormoqda, hayvonot dunyosida esa migratsiya yo‘nalishlari o‘zgarib, ko‘payish jarayonlari izdan chiqmoqda, bu esa biologik xilma-xillikning kamayishiga, oziq-ovqat zanjirida uzilishlar yuzaga kelishiga hamda ekologik barqarorlikning buzilishiga olib kelmoqda, shuning uchun iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni yetishtirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, degradatsiyaga uchragan yerlarni rekultivatsiya qilish, o‘rmonzorlarni ko‘paytirish, yovvoyi tabiatni muhofaza qilish hududlarini kengaytirish, yashil energiya manbalaridan foydalanish, atmosferaga chiqayotgan zararli gazlarni kamaytirish, mahalliy o‘simlik va hayvon turlarini saqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni davom ettirish, iqlimga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish va aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ясаманов Н.А. Древние климаты Земли. – Л.: Гидрометеоиздат, 1985. – 296 с.
2. Будыко М.И. Антропогенные изменения климата. – Л.: Гидрометеоиздат, 1987. – 405 с.
3. ZS Shoxo'jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: 2012.

4. Kurbonov A.B., Shoxo'jayeva Z.S. (2019). Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(6), 5123-5126.
5. Shoxo'jayeva Z.S., Norqobilov M. (2020). Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. Journal of Critical Reviews, 7(14), 4097-4101.
6. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) Reports. 2019-2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi rasmiy ma’lumotlari. www.eco.gov.uz